



G'AZNACHILIK TIZIMIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI BOSHQARISHDA XORIJY ILG'OR TAJRIBALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

PROSPECTS FOR IMPLEMENTING ADVANCED INTERNATIONAL PRACTICES IN THE MANAGEMENT OF FINANCIAL RESOURCES IN THE TREASURY SYSTEM

**Shodmonkulova Shahlo
Olimjon qizi**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasи tayanch doktoranti.
G-mail: shahloshadmankulova@gmail.com

Uzb. - Ushbu maqolada g'aznachilik tizimida pul oqimlarini samarali boshqarishning zamонавиy yondashuvlari yoritilgan hamda ilg'or xorijiy mamlakatlar – xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va Singapur kabi davlatlar tajribasi o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston g'aznachilik tizimida bu tajribalarni moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ilmiy ishda pul oqimlarini markazlashtirilgan boshqaruv, yagonalashtirilgan hisoblar tizimi (TSA – Treasury Single Account), real vaqt rejimidagi monitoring kabi mexanizmlarning afzalliklari ko'rsatib berilganligi inobatga olinib, mazkur maqola asosida g'aznachilik faoliyatining shaffofligi, moliyaviy intizom va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar o'z ifodasini topadi.

Eng. - This article highlights modern approaches to the effective management of cash flows within the treasury system and examines the advanced experiences of foreign countries, particularly the United States, the United Kingdom, Canada, and Singapore. Furthermore, the possibilities of adapting these experiences to the treasury system of Uzbekistan are analyzed. The study considers the advantages of mechanisms such as centralized cash flow management, the Treasury Single Account (TSA) system, and real-time monitoring. Based on these insights, the article presents practical recommendations aimed at enhancing transparency, financial discipline, and the efficient use of resources in treasury operations.

Annotation

Kalit so'zlar:

Keywords:

❖ g'aznachilik, pul oqimi, moliyaviy boshqaruv, budget intizomi, davlat moliyasi, resurslar samaradorligi.
❖ treasury, cash flow, financial management, budget discipline, public finance, resource.

Kirish.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda budjet mablag'laring samarali boshqaruvi va shaffofligini ta'minlashda g'aznachilik tizimi muhim o'rin egallaydi. Pul oqimlarini markazlashtirilgan tarzda boshqarish orqali nafaqat budjet ijrosi ustidan nazorat kuchaytiriladi, balki davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi ham

oshiriladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi moliyaviy tizimida islohotlar chuqurlashib borar ekan, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va ularni milliy tizimga moslashtirish dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Dunyo miqyosida, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ayrim davlatlar

tomonidan joriy etilgan yagonalashtirilgan g'aznachilik hisoblari (Treasury Single Account – TSA), real vaqt rejimidagi monitoring tizimlari, raqamli boshqaruv texnologiyalari g'aznachilik faoliyatini takomillashtirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tizimlar yordamida davlat budgetining daromad va xarajatlari ustidan nazorat kuchaytirilib, mablag'lar tushumi va ularning maqsadli sarflanishi ta'minlanadi. Shu orqali budget mablag'larining samaradorligi oshadi, moliyaviy intizom mustahkamlanadi va korrupsiya xavfi kamayadi. Bundan tashqari, real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati yaratiladi, bu esa budget ijrosi ustidan doimiy nazoratni ta'minlaydi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tajribalarни tahlil qilish orqali O'zbekiston g'aznachilik tizimining zamonaviy bosqichda qanday yo'nalishda isloh qilinishi lozimligi yuzasidan aniq ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi. Shu maqsadda, ushbu maqolada ilg'or xorijiy mamlakatlarning g'aznachilik tizimidagi moliyaviy resurslarni boshqarish amaliyoti o'rganilib, ularning O'zbekiston sharoitiga mos jihatlari tahlil qilinadi hamda amaliyotga joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda g'aznachilik tizimidagi pul oqimlarini boshqarish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan tizimli yondashuv qo'llanildi. Ilmiy ishda taqqoslash va tahliliy usullar kabi metodlardan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

R.Allen g'aznachilik tizimini budget mablag'lari ustidan real vaqt rejimida nazorat va ularni maqsadli boshqarishning asosiy vositasi sifatida baholaydi. U ilg'or davlatlar tajribasiga tayangan holda moliyaviy

boshqaruvning shaffofligini oshirishni taklif qiladi [3].

J.Diamond davlat g'aznachilik tizimini modernizatsiya qilishda yagona g'aznachilik hisobvaraqlarining ahamiyatini ochib bergan hamda uni fiskal nazorat va samarali pul oqimi boshqaruvi uchun zarur deb ta'kidlagan [4].

I.Lienert davlat moliyasini boshqarishda qonunchilik asoslarining barqarorligi va ilg'or axborot tizimlarining integratsiyasi g'aznachilik samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi [5].

A.Schickning fikricha, budget ijrosining markazlashgan nazorati va g'aznachilik tizimining funksional mustahkamligi davlat moliyasining barqarorligini ta'minlaydi [6].

S.Pattanayak va I.Fainboim yagona g'aznachilik hisob raqami (TSA)ni joriy etish orqali nafaqat moliyaviy resurslarning to'liq nazoratini, balki samarali kassa boshqaruvini ham ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydilar [7].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda G'aznachilik boshqarmasi tomonidan e'lon qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, ochiq ma'lumotlar bazalari va rasmiy hisobotlar asosida milliy g'aznachilik tizimidagi mavjud holat baholandi. Ushbu hujjatlar davlat moliyasini boshqarish va g'aznachilik tizimini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqali amaldagi moliyaviy boshqaruv mexanizmlari, budget ijrosi, hisobdorlik va nazorat jarayonlari yoritib berilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining tegishli nizomlari, shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan g'aznachilik operatsiyalariga oid yo'riqnomalar ushbu tizimning normativ asosini tashkil etadi.

- "Davlat budgetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda davlat budgetining ijrosini yaxshilash, g'aznachilik tizimini

takomillashtirish va markazlashtirilgan boshqaruvni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan [1].

- "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Bu hujjatlar davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi va Moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar bazalari va hisobotlar davlat moliyasining holatini baholashda muhim manba hisoblanadi. Bu ma'lumotlar davlat moliyasining samaradorligini tahlil qilish va islohotlarni amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilg'or xorijiy mamlakatlar – xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Singapur, shuningdek, ayrim rivojlanayotgan davlatlar (masalan, Nigeriya va Keniya) tajribasida yagonalashtirilgan g'aznachilik hisoblar tizimi (TSA), real vaqt rejimidagi moliyaviy nazorat va raqamli boshqaruv

vositalarining davlat moliyasini boshqarishdagi ijobiy samaraga erishilgan. Xususan, TSA tizimi orqali erishilgan amaliy samaradorlik va iqtisodiy tejamlilik, moliyaviy intizom va shaffoflikning kuchayishi kabi omillar ushbu tizimning afzalliklarini ko'rsatadi. Bu esa O'zbekiston g'aznachilik tizimining mavjud holati va rivojlanish imkoniyatlarini baholash hamda xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish yo'llarini belgilashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar – AQSh, Nigeriya va Keniya misolida g'aznachilik tizimida yagonalashtirilgan hisoblar tizimi (TSA), budget nazorati hamda raqamli moliyaviy boshqaruv mexanizmlariga oid amaldagi qonunchilik hujjatlari, rasmiy statistika ma'lumotlari va xalqaro moliyaviy tashkilotlar (IMF, Jahon banki) hisobotlari tahlil qilindi. Ushbu davlatlarning moliyaviy boshqaruv strategiyalari, jumladan, xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va davlat qarzini samarali boshqarish borasidagi amaliy natijalari o'zaro solishtirildi. Tahlillar xorijiy ilg'or tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

Nigeriya, Keniya, AQSH davlatlarining moliyaviy boshqaruv strategiyalari va ularning amaliy natijalari [8]

Nigeriya	Keniya	AQSH
<p>Nigeriyada Treasury Single Account (TSA) tizimi 2012-yilda joriy etilganidan so'ng, 2014-yilda federal hukumat foydalanimagan mablag'lar hisobiga taxminan 500 mlrd. naira tejadi. Bu mablag'lar ilgari turli davlat idoralari tomonidan ishlatilmagan edi. TSA tizimi orqali barcha to'lovlar elektron platforma orqali amalga oshirilishi, mablag'larning shaffof va nazorat qilinishi ta'minlandi.</p>	<p>Keniya TSA tizimini amalga oshirishda ikki modelni qo'llamoqda: markazlashtirilgan va gibrild model. Markazlashtirilgan modelda barcha operatsiyalar yagona hisobga o'tkaziladi, gibrild modelda esa har bir idora o'z hisobini saqlaydi, ammo barcha mablag'lar oxir-oqibat yagona hisobga o'tkaziladi. Bu yondashuv davlat mablag'larning samarali boshqarilishini ta'minlaydi.</p>	<p>AQShda TSA tizimi davlat moliyasining markazlashtirilgan boshqaruvini ta'minlaydi. Bu tizim orqali davlat mablag'larining oqimlari nazorat qilinadi, budget ijrosi samaradorligi oshadi va davlat qarzining boshqaruvi yaxshilanadi.</p>

Nigeriya amaliyotida TSA tizimi joriy etilgach, 2014-yil davomida federal hukumat tomonidan 500 mlrd. naira miqdoridagi foydalanilmayotgan mablag'lar aniqlanib, markazlashtirilgan hisobga o'tkazilishi orqali sezilarli darajada tejashta erishilgan. Shuningdek, har oyda o'rtacha 24,7 milliard naira miqdoridagi mablag'lar budgetdan ortiqcha bank komissiyalari va yashirin hisoblar tufayli isrof bo'lishining oldi olingan.

AQSh tajribasida esa TSA tizimi g'aznachilik faoliyatini samarali tashkil etishda muhim vosita bo'lib, davlat budgeti mablag'larining real vaqt rejimidagi nazoratini hamda likvidlikni markazlashtirilgan holda boshqarishni ta'minlaydi. Bu nafaqat davlat moliyaviy resurslari oqimini optimallashtiradi, balki qisqa muddatli qarzlarni rejalashtirish va xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Keniya tajribasida esa TSA tizimi gibrild model asosida faoliyat yuritadi. Bunda idoraviy hisoblar saqlanadi, biroq ularning likvid mablag'lari markazlashtirilgan hisob raqamiga yo'naltiriladi. Ushbu model orqali ishlatilmayotgan davlat mablag'lari ustidan nazorat kuchaytirilib, moliyaviy oqimlar aniq va samarali rejalashtirilmoqda.

TSA joriy etilgan davlatlarda davlat mablag'larining ko'p sonli banklarda tarqoq saqlanishi tugatilgan, bu esa:

- budget mablag'larining duplikatsiyasi va yashirin ishlatilishi xavfini kamaytirgan;
- har bir idora xarajatlari ustidan moliyaviy intizom kuchaytirilgan;
- budget ijrosi ustidan markaziy nazorat tizimi takomillashtirilgan.

Masalan, Buyuk Britaniyada HM Treasury TSA tizimi orqali barcha idoraviy hisoblar ustidan muntazam nazorat olib boradi va mablag'lar harakati avtomatlashtirilgan hisobotlar orqali kuzatilib boriladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va G'aznachilik boshqarmasi tomonidan hozirda yagonalashtirilgan hisoblar tizimining

elementlari bosqichma-bosqich joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasining "Davlat budgeti to'g'risida"gi qonunlarida budget mablag'larining maqsadli, shaffof va samarali boshqarilishi qat'iy talab etilgan. Ushbu talablar asosida G'aznachilik boshqarmasi tomonidan bir qator zamonaviy elektron tizimlar, jumladan, budget ijrosini monitoring qilish tizimi joriy etilib, real vaqt rejimida operatsiyalar ustidan nazorat kuchaytirilmoqda. Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Davlat moliyasini boshqarish" loyihasi doirasida yagonalashtirilgan g'aznachilik hisoblar tizimi (TSA) modeliga o'tish bo'yicha institutsional va huquqiy islohotlar olib borilmoqda [2].

Quyidagi tahlillar asosida aniqlanishicha, O'zbekistonda TSA tizimini to'liq joriy etish orqali foydalanilmayotgan budget mablag'larini aniqlash va ularni markazlashtirilgan likvidlik zaxiralariga yo'naltirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, davlat idoralarining hisoblarini yagona markazlashtirilgan tizimga o'tkazish moliyaviy shaffoflik va intizomni kuchaytiradi. Real vaqt rejimida ishlovchi monitoring tizimlari orqali esa budget ijrosi ustidan samarali nazorat o'rnatilib, budget islohotlarining umumiy samaradorligini ta'minlash mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy davlatlarning ilg'or g'aznachilik tizimi tajribasidan foydalanish orqali O'zbekistonning moliya va g'aznachilik tizimini yanada samarali boshqarish mumkin. Xususan, TSA tizimi AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va Singapur kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli joriy etilgan bo'lib, bu tizim davlat moliyasini markazlashtirish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy nazoratni kuchaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. O'zbekiston ham ushu tajribalarni milliy tizimga moslashtirish orqali budget mablag'lari harakatining shaffofligini oshirishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston g'aznachilik tizimi uchun ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish imkoniyatlari mavjud. Xususan, TSA tizimini joriy qilish orqali davlat moliyasining samaradorligini oshirish, mablag'lar oqimini yaxshilash va moliyaviy intizomni kuchaytirish mumkin. Biroq, texnologik infratuzilma, kadrlar malakasi va tizimning to'liq amalga oshirilishidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun keng qamrovli reja ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda tajriba almashish va texnologiyalarni joriy etish uchun resurslarni ajratish zarur.

TSA tizimini to'liq amalga oshirish uchun O'zbekistonda mavjud texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli boshqaruv vositalarini kengaytirish va kadrlar malakasini oshirish zarur. Elektron nazorat tizimlarining keng joriy etilishi, idoralar xodimlarini yangi tizimlar bilan ishlashga tayyorlash bo'yicha treninglar tashkil etilishi ushbu islohotlarning muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, markazlashtirilgan g'aznachilik tizimi davlat qarzini boshqarishda ham samarali vosita bo'lib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat budgetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-sonli qarori. 2007-yil 28-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Osyo taraqqiyot banki ishtirokida "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-721-sonli Qarori. 2007-yil 1-noyabr.
3. Allen R., Tommasi D. *Managing Public Expenditure: A Reference Book for Transition Countries*. – Paris: OECD Publishing, 2001. – 534 p.
4. Diamond J. *Treasury Management in Government: An Introduction*. – Washington: International Monetary Fund, 2006. – 64 p.
5. Lienert, I. *The Legal Framework for Public Finances and Budget Systems*. – Washington: IMF Working Paper, 2010. – No. 10/4. – 28 p.
6. Schick, A. *A Contemporary Approach to Public Expenditure Management*. – Washington: World Bank Institute, 1999. – 85 p.
7. Pattanayak, S., Fainboim, I. *Treasury Single Account: An Essential Tool for Government Cash Management*. – Washington: International Monetary Fund, 2011. – Technical Notes and Manuals, No. 11/03. – 20 p.
8. World Bank (2019). "Global Financial Management and Treasury Single Account Implementation Report," World Bank.
9. OECD (2018). "Public Financial Management and the Role of Treasury Single Account," OECD.
10. Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi. *Experience of foreign countries in imporoving the methodology for monitoring cash flows in the treasury. / In volume 2, Issue 12 of Web Scientist: International Scientific research Journal (WOS) December, 2021*.
11. Shaxlo Shodmonkulova Olimjon qizi. *G'aznachilik tizimining joriy qilinishining davlat moliyasi tizimidagi ahamiyati. International conference on developements in education Hosted from Amsterdam, Netherlands; April, 2022. 350-351b*.